



Rustamjon ALLABERDIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, b.f.n
E-mail: a-rustam@rambler.ru
Matluba ELMURODOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti.

SamDU PhD B.Otaqulov taqrizi asosida

TUPROQDAGI OG'IR METALLAR, PESTITSID QOLDIQLARI MIQDORIGA ORGANIK VA BIOLOGIK O'G'ITLARNI UYG'UNLASHGAN HOLDA QO'LLASHNING TA'SIRI

Annotatsiya

Biologik preparatlar organik o'g'itlar (siderat va go'ng) fonida qo'llaganda tuproqdagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorini N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ – fon (nazorat) agrotsenoziga nisbatan kamayishini ta'minlaydi. Organik o'g'itlar tuproq ekologik holatini yaxshilaydi va gumus miqdorini oshiradi, natijada tuproqqa tushgan og'ir metallar organik moddalarga adsorbsiyalanadi, shu bilan birgalikda GXSG va DDT kabi pestitsidlar qoldiqlari kamayadi, tuproqning ekologik barqarorligi saqlanishi ta'minlanadi. **Kalit so'zlar:** Agrotsenoz, gumus, GXSG, DDT, adsorbsiya, Rizokom-1, organik o'g'itlar, biopreparat, og'ir metallar, gidrooksidsllar, karbonatlar, fosfatlar, ekologik barqarorlik.

ВЛИЯНИЕ КОМПОНЕНТНОГО ПРИМЕНЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКИХ И БИОЛОГИЧЕСКИХ УДОБРЕНИЙ НА ТЯЖЕЛЫЕ МЕТАЛЛЫ И НА ОСТАТКИ ПЕСТИЦИДОВ В ПОЧВЕ

Аннотация

Применение биопрепаратов на фоне органических удобрений (сидератов и навоза) обеспечивают снижение количества тяжелых металлов в подвижной форме в почве по сравнению с фоновым (контроль) агроценозом N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅. Органические удобрения улучшают экологическое состояние почвы и увеличивают количество гумуса, в результате попадающие в почву тяжелые металлы адсорбируются органическими веществами, в то же время уменьшаются остатки пестицидов типа ГХЦГ и ДДТ, и обеспечивается экологическая стабильность почвы.

Ключевые слова: Агроценоз, гумус, ГХЦГ, ДДТ, адсорбция, Ризоком-1, органические удобрения, биопрепарат, тяжелые металлы, гидроксиды, карбонаты, фосфаты, экологическая устойчивость.

INFLUENCE OF COMPONENT APPLICATION OF ORGANIC AND BIOLOGICAL FERTILIZERS ON HEAVY METALS AND PESTICIDE RESIDUE IN THE SOIL

Annotation

The use of biological products against the background of organic fertilizers (green manure and manure) ensures a decrease in the amount of heavy metals in mobile form in the soil compared to the background (control) agroecosystem N250P175K125. Organic fertilizers improve the ecological condition of the soil and increase the amount of humus, as a result of which heavy metals entering the soil are adsorbed by organic substances, while at the same time the residues of pesticides such as GXSG and DDT are reduced, and the ecological stability of the soil is ensured.

Key words: Agroecosystem, humus, GXSG, DDT, adsorption, Rizocom-1, organic fertilizers, biological product, heavy metals, hydroxides, carbonates, phosphates, environmental sustainability.

Tadqiqotning maqsadi Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida sideratlar, go'ng va Rizokom-1 bakterial preparatini qo'llash orqali tuproqdagi og'ir metallar va pestitsidlarni zararli tasiri kamaytirildi. G'o'za agrotsenozi mahsuldarligiga, tuproqning ekologik holatiga va organizmlar o'rtasidagi munosabat formalariga ta'sirini ekologik baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Mintaqaning tuproq-iqlim sharoitini ilmiy tahlil qilish sideratlar, go'ng va biologik preparatlar tuproq ekologik xususiyatlaridan tuproqning pestitsidlar va og'ir metallar bilan ifloslanishiga ta'sirini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning uslubi: Namunalarni tahlilga tayyorlash, tuproqdagi og'ir metallar kobalt (Co), nikel (Ni), rux (Zn), molibden (Mo), mishyak (As), surma (Sb), simob (Hg)ni ISP-MS (Nexion 2000) induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometr qurilmasi yordamida kimyoiy usulda aniqlash bayon etilgan. Olingan natijalar yuqori me'yori konsentratsiyalar bilan taqqoslangan.

Qishloq xo'jaligining ifloslantiruvchi moddalari suv sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi va ular ko'llar, daryolar, botqoqlar, kichik daryolar va yer osti suvlarida uchraydi. Qishloq xo'jaligidagi ifloslantiruvchi moddalarga cho'kindi moddalar, ozuqa moddalari, patogenlar, pestitsidlari, metallar va tuzlar kiradi [5]. Chorvachilik qishloq xo'jaligida atrof-muhitiga kiradigan ifloslantiruvchi moddalarni hajmi bilan katta ta'sir ko'rsatadi. Lagunlarda va maxsus joylarda go'ngni to'g'ri saqlash va dalalarga go'ng sepilishi to'g'ri boshqarilmasa, go'ng tarkibidagi bakteriyalar va patogenlar, daryolar va yer osti suvlariga kirib borishi mumkin [6]. Yerdan foydalanishning o'zgarishi, chorvachilik va dehqonchilik amaliyotlari va qishloq xo'jaligi faoliyatni natijasida havoning ifloslanishi iqlim o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi va bu muammolarni hal qilish IPCC Iqlim o'zgarishi va yer bo'yicha maxsus hisobotining asosiy qismidan o'rinn olgan [7].

Pestitsidlari va gerbitsidlari qishloq xo'jaligi yerlariga ekin yetishtirishni buzadigan zararkunandalarga qarshi kurashda qo'llaniladi. Tuproqning ifloslanishi pestitsidlari tuproqda saqlanib qolganda va tuproqda to'planib turg'un organik

ifloslantiruvchilarga aylanganda sodir bo'ladi, bu mikrobial jarayonlarni o'zgartirishi, o'simliklarning kimyoiy moddalarini o'zlashtirishini kuchaytirishi va tuproq organizmlariga zaharli bo'lishi mumkin. Pestitsidlar va gerbitsidlarning saqlanish darajasi aralashmaning o'ziga xos kimyosiga bog'liq bo'ladi, natijada u sorbsiya dinamikasiga va tuproq muhitining taqdiri va transport xususiyatiga kuchli ta'sir qiladi [8]. Pestitsidlar ifloslangan zararkunandalar va tuproq organizmlari bilan oziqlanadigan hayvonlarda ham to'planishi mumkin. Bundan tashqari, pestitsidlar foydali hasharoqlar, masalan, changlatuvchilar va zararkunandalarning tabiiy dushmanlari (ya'ni, zararkunandalarni ovlaydigan yoki parazitlik qiluvchi hasharoqlar) uchun maqsadli zararkunandalarga nisbatan ko'proq zararli bo'lishi mumkin [9].

Og'ir metallarning (masalan, qo'rg'oshin, kadmiy, mishyak, simob) qishloq xo'jaligi tizimidagi asosiy qismlari o'g'itlar, go'ng kabi organik chiqindilar va qo'shimcha sanoat mahsulotlarning chiqindilari hisoblanadi. Noorganik o'g'itlar, ayniqsa, og'ir metallarning tuproqqa kirishi uchun muhim yo'ldir [10]. Sug'orish kabi ba'zi dehqonchilik usullari tuproqda tabiiy ravishda to'planadigan selennenning (Se) to'planishiga olib keladi, buning natijasida quyi oqimdagisi suv havzalarida yovvoyi hayvonlar, chorva mollari va odamlar uchun toksik bo'lgan selen kontsentrasiysi bo'lishi mumkin. Bu jarayon 1987-yilda zaharli chiqindixona deb e'lon qilingan San-Xoakin vodiyisidagi (Kaliforniya, AQSh) Kesterson suv ombori nomi bilan atalgan „Kesterson effekti“ nomi bilan mashhur [11]. Atrof-muhitda mayjud bo'lgan og'ir metallar o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin, bu esa ta'sirlangan o'simliklarni iste'mol qilganda odamlar sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin [11]. Ba'zi metallar o'simliklarning o'sishi uchun zarurdir, ammo ularning ko'pligi o'simlik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tajribada mineral va organik o'g'itlar hamda biologik preparatlari qo'llanilishining tuproq tarkibidagi harakatchan og'ir metallar miqdoriga ta'siri o'rganib borildi. Tuproqdagagi og'ir metallar harakatchanligi tuproq muhiti, mexanik tarkibi, tuproq tarkibidagi gumarus miqdori kabi ekologik omillarga bog'liq [3]. Tuproq muhitining ishqoriy tomonga o'zgarishi tuproqdagagi og'ir metallar harakatchanligini kamaytiradi. Og'ir metallarning zarari mexanik tarkibi yengil, kam gumarusli tuproqlarda ko'proq kuzatiladi [2]. Tuproqning organik moddalar bilan boyishi va singdirish sig'imining ortishi natijasida og'ir metallar organik moddalariga adsorblanadi (singdiriladi) va tuproqdagagi turli ionlar bilan suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi.

S.Ye.Vitkovskaya [4] ma'lumotiga ko'ra, organik o'g'itlar tarkibidagi og'ir metallar tuproqda 5 yildan ko'proq davr mobaynida organik moddalar tarkibida saqlanishi mumkin va ular bu davr davomida o'simliklar tomonidan o'zlashtirilmaydi. Organik moddalarning minerallanishi natijasida og'ir metallar tuproq muhiti ishqoriy bo'lganda tuproqdagagi anionlar (gidrooksidlar, karbonatlar, fosfatlar) bilan birikib suvdan qiyin eriydigan tuzlar hosil qiladi.

Tajriba o'tkazilgan maydon tuproq ida tadqiqot boshlanishida harakatchan shakldagi Pb, Cd, Cu, Zn, Co ning miqdori mos ravishda 1,2; 0,5; 0,9; 2,6; 1,5 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, 3 yil davomida organik o'g'itlar va biologik preparatlari qo'llash natijasida tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorining kuchli o'zgarishi kuzatilmadi. Fon+siderat – 10 t/ga, Fon+go'ng - 10 t/ga qo'llanilgan agrotsenozlarda N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ – fon (nazorat) agrotsenoziga nisbatan Pb va Co miqdorining pasayishi, Cu va Zn miqdorining biroz yuqori bo'lishi kuzatildi. Cd miqdorning esa o'zgarishi kuzatilmadi. Bunga sabab, go'ng va siderat tarkibida Pb va Co kam miqdorda, Cu va Zn biroz yuqori miqdorda bo'lishidir. Lekin, ushu miqdorlar REM chegarasida bo'ldi (3.5-rasm).

Organik o'g'itlar va biologik preparatlari qo'llanilgan agrotsenozda o'rganilgan barcha og'ir metallar miqdori pasayishi kuzatildi. Organik o'g'itlar va biologik preparatlari kam me'yorda qo'llanilganligi bois, ular tarkibida og'ir metallar kam miqdorda saqlanadi (1-jadval).


1-jadval

Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatinining tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdoriga ta'siri (2019-2021 yy.), mg/kg

Nº	Agrotsenozlar	Pb	Cd	Cu	Zn	Co
1	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ – fon (nazorat)	1,3	0,5	1,5	5,4	1,6
2	Fon+Rizokom-1	1,1	0,5	1,3	4,8	1,4
3	Fon+siderat – 10 t/ga	1,2	0,4	1,0	3,0	1,3
4	Fon+siderat+Rizokom-1	1,3	0,3	0,8	2,7	1,0
5	Fon+go'ng - 10 t/ga	1,2	0,5	0,9	2,3	1,5
6	Fon+go'ng+Rizokom-1	1,2	0,3	0,7	2,4	1,0
	REYYuM (REM)	10,0	1,0	3,0	23,0	5,0

Tuproqdagagi mikroelementlar (og'ir metallar) ma'lum miqdorda o'simliklar tomonidan ham o'zlashtiriladi. Fon+Rizokom-1 biologik preparati qo'llanilgan agrotsenozda og'ir metallarning harakatchan miqdori boshqa agrotsenozlardagiga nisbatan kam bo'ldi.

Biologik preparatlari organik o'g'itlar (siderat va go'ng) fonida qo'llaganda ham harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdorining N₂₅₀R₁₇₅K₁₂₅ – fon (nazorat) agrotsenoziga nisbatan kamayishi kuzatildi. Umuman olganda, organik o'g'itlar tuproq xossalalarini yaxshilaydi va gumarus miqdorini oshiradi.



1-rasm. Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatinining tuproq tarkibidagi harakatchan shakldagi og'ir metallar miqdoriga ta'siri (2019-2021 yy.), mg/kg

Tuproqning turli xil ionlar bilan boyishi natijasida tuproqqa tushgan og'ir metallar organik moddalariga adsorbsiya qilinadi yoki anionlar bilan birikib suvda erimaydigan tuzlar hosil qiladi.

Shunday qilib, organik o'g'itlar (siderat va go'ng) Rizokom-1 biologik preparati bilan birligida qo'llanilgan agrotsenozlarda tuproq tarkibidagi harakatchan og'ir metallar miqdori oshishi kuzatilmaydi, aksincha tuproqning turli xil ionlar bilan boyishi natijasida tuproqdagagi og'ir metallar organik moddalariga adsorbsiyalaranadi, shuningdek, anionlar bilan birikib, suvda erimaydigan turli tuzlar hosil qiladi.

Pestsidlar (lot. *pestis* – *maraz, caedo* – *o'ldiraman*), zaharli kimyoviy moddalar - o'simlik zararkunandalari va kasalliklari, begona o'tlar, shuningdek, yog'och, paxta toiasi mahsulotlari, jun, teri zararkunandalari, uy hayvonlarining xavfli kasalliklari qo'zg'atuvchilariga qarshi kurashishda foydalaniladigan kimyoviy moddalar. Shuningdek, auksinlar, gibberellinlar, defoliantlar, desikantlar, retradantlar ham pestsidiga kiritiladi. Pestsid tirik organizmlar hujayralariga kirib ularning fizik va kimyoviy xususiyatlarni o'zgartiradi. Hujayraning oqsil va boshqa moddalar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, ularni cho'kmaga tushiradi, fermentlar faolligini zaiflashtiradi, modda almashinuvni jarayonini buzadi va hujayrani halokatga olib keladi.

Eng muhim pestsid xlororganik va fosfororganik birikmalar, karbamin kislota hosilalari, o'simliklardan olinadigan (piretroidlar), triazinlar kirdi. Anorganik pestsiddan mis, oltingugurt va boshqa elementlarning birikmalarini ko'rsatish mumkin. Xlororganik pestsid universalligi bilan afzaldir. Ular juda ko'p tur zararkunandalarni yo'q qiladi, ta'sir kuchi uzoq muddat saqlanadi va issiqxonli hayvonlar uchun xavfi kam. Xlororganik pestsidning kamchiligi ularning tashqi muhit, tuproq, o'simlik va suvdagi kimyoviy jihatdan barqarorligi, ya'ni uzoq vaqtgacha parchalanmay saqlanish turishidir. Bu esa preparat goldiklarining o'simlik mahsulotlari va hayvon organizmi tarkibida yig'ilib qolishga olib kelishi mumkin. DDT kabi juda barqaror preparatlardan foydalanish man qilingan. Fosfor organik pestsid yuqori biologik aktivlikka ega. Bu birikmalar o'simlik ichiga singib kirim va zahar kuchini anche vaqt saqlab turish xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi.

Tajribada olingan ma'lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, tajriba qo'yishdan oldin GXSG qoldiqlari barcha o'r ganilgan agrotsenozlarda 0,02-0,05 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, DDT qoldig'i 0,05-0,06 mg/kg atrofida bo'lganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Organik o'g'itlar va Rizokom-1 preparatining tuproq tarkibidagi pestsidlar qoldiqlariga ta'siri, 0-30 sm (2019-2021 yy.), mg/kg

№	Agrotsenozlar	Tajriba qo'yishdan oldin		3-yil mavsum oxirida	
		GXSG	DDT	GXSG	DDT
1	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ – fon (nazorat)	0,03	0,06	0,02	0,04
2	Fon+Rizokom-1	0,05	0,05	0,04	0,03
3	Fon+siderat – 10 t/ga	0,05	0,06	-	-
4	Fon+siderat+Rizokom-1	0,04	0,05	-	-
5	Fon+go'ng - 10 t/ga	0,02	0,05	-	-
6	Fon+go'ng+Rizokom-1	0,03	0,06	-	-
REM (PDK)		0,1	0,5	0,1	0,5

Tajribaning uchinchi yili mavsum oxirida o'tkazilgan tahlillarda, N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ – fon (nazorat) va Fon+Rizokom-1 agrotsenozlarda GXSG va DDT qoldiqlari mayjudligi va o'z navbatida qisman kamayganligi aniqlangan bo'lsa, organik o'g'itlar (siderat va go'ng) bilan birligida biologik preparat qo'llanilgan agrotsenozlarda mazkur pestsidlar qoldiqlar uchramaganligi qayd etildi (2-jadval). Ushbu holat pestsid qoldiqlarining organik massaga birikishi bilan izoqlanadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigkan tipik bo'z tuproqlari sharoitida tuproq unumtdorligini oshirishda turli siderat ekinlaridan foydalanish, go'ng qo'llash, shu bilan birligida biologik preparatlarni qo'llash natijasida tuproqlar tarkibida og'ir metallar va shu bilan birligida GXSG va DDT kabi pestsidlar qoldiqlari kamayishiga, tuproqning ekologik barqarorligi saqlanishiga erishish ta'minlanadi. Shu jihatdan pestsidning odam, hayvon, o'simlik, suv va umuman atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish ularni qo'llashda faqatgina zararkunandaga emas, balki biotsenozga ham ta'sirini, ya'ni oqibatini oldindan hisobga olish kerak. Pestsid zararkunandalarni yo'q qilib yuborish vositasidan, ular sonini tartibga solib turadigan vositalarga aylanishi lozim.

ADABIYOTLAR

- Bowen H.J.M. Environmental chemistry of the elements. – N.Y. – L. : Acad. Pr., 1979. -P. 238-239.
- Chester R., Kudoja W.M., Thomas A., Towner J. Pollution reconnaissance in stream sediments using non-residual trace metals // Environmental pollution (series B). 1985. № 10. –P. 213-238.
- Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных химических элементов в почвах – М : Изд-во АН СССР, 1957. – 238 б.
- Витковская С.Е. Агроэкологические основы использования биотермически переработанных твердых бытовых отходов для повышения плодородия кислых почв: Автoref. дис... докт. биол. наук. СПб: ГНУАФИРАСХНЛ, 2006. -47 с.
- „Agricultural Nonpoint Source Fact Sheet“. EPA (20-fevral 2015-yil). Qaraldi: 22-aprel 2015-yil.
- „Qishloq xo'jaligi amaliyotining tabiiy resurslarga ekologik ta'sirini o'rganish. ". USGS. 2007-yil yanvar, pubs.usgs.gov/fs/2007/3001/pdf/508FS2007_3001.pdf. 2018-yil 2-aprelda foydalanilgan.
- IPCC. *IPCC Special Report on Climate Change, Desertification, Land Degradation, Sustainable Land Management, Food Security, and Greenhouse gas fluxes in Terrestrial Ecosystems*. Matbuotda, 2019. <https://www.ipcc.ch/report/srccl/>.
- „Atrof-muhitga oid ma'lumotlar bazalari: Ekotoksite ma'lumotlar bazasi“. Washington, D.C.: U.S. Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) (28-iyun 2006-yil). 4-iyul 2014-yilda asl nusxdan arxivlangan.
- Gullan. , P.J. va Cranston, P.S. (2010) Hasharotlar: Entomologiyaning qisqacha mazmuni, 4-nashr. Blackwell Publishing UK: 584-sahifa.
- Srivastava, Vaibhav; Sarkar, Abhijit; Singh, Sonu; Singh, Pooja; de Araujo, Ademir S. F.; Singh, Rajeev P. (2017). „Og'ir metallar ifloslanishining agroekologik javoblari, tuproq salomatligi va o'simliklarning ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilgan“. *Frontiers Environmental Science (inglizcha)*. 5-jild. doi:10.3389/fenvs.2017.00064. ISSN 2296-665X.
- Presser, Tereza S. „Kesterson effekti“. Atrof-muhitni boshqarish (inglizcha). 18-jild, № 3. 437–454-bet. Bibcode:1994EnMan..18..437P. doi:10.1007/BF02393872. ISSN 1432-1009. S2CID 46919906. {{cite magazine}}: Unknown parameter |data= ignored (|date= suggested) (yordam)
- Alves, Leticia; Reis, Andre; Gratião, Priscila (18-iyul 2016-yil). „Qishloq xo'jaligi tuproqlaridagi og'ir metallar: O'simliklardan kundalik hayotimizga“. Cientifica. 44-jild. 346-bet. doi:10.15361/1984-5529.2016v44n3p346-361. {{cite magazine}}: Unknown parameter |masala= ignored (yordam)CS1 maint: date format.